



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOIYLLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
I. R. Berdikulova	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI.....	16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li	
Turobova Hulkar Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
Davletov Ikrom Raximberganovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ	38
Абдуллаева М.Б.	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
Niyozov Zuxur Davronovich	
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО	58
Худойкулова Дилора Дилмуродовна	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi	
XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	77
Karimova Dilafruz Sadridin qizi	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARI VA HORIJIIY TAJRIBA TAHLILI	89
Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI	94
Otarbayev Zamir Zairovich	



SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI	100
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	
ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	107
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	113
Хо'jamov Akbar Bahriddinovich	
KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI.....	118
Djumayev Askar Xaydarovich	
SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURSLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI.....	123
Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li	
Qahhorova Nargiza Qahramonovna	
Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li	
Jamilov Firdavs Otabek o'g'li	
ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ	129
Норкулов Хабибулло	
Абдурасулова Шахзода	
Бахриддинов Дилшодбек	
NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV	135
Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi	
SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	138
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ	147
Джуманов А.А.	
BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH.....	157
Masharipova Durdona Ulug'bekovna	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	164
Джуманов А.А.	
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI.....	174
Rahmanov Furqat Temirovich	
АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Ибрагимов Гайратжон Артикович	
TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH	186
Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich	
SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILIGIGA TA'SIRI.....	192
Shakarov Zafar Gafforovich	



URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI	198
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich	
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li	
Uzoqov Rafiq O'lmas o'g'li	
INFRATUZILMA INVESTITSİYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI	204
Jiyanov Laziz Najimovich	
«ЗЕЛЁНОЕ» ВОДОСНАБЖЕНИЕ В ЗАСУШЛИВЫХ РЕГИОНАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	210
Курбанова Дилфуза Махсудовна	
TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	217
Karimova Feruza Xamidullayevna	
PAXTACHILIKDA ZAMONAVIY AGROTEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA EKOLOGIK MUVOZANAT TA'MINLASHNING IQTISODIY MEKANIZMI.....	221
Ishniyazov Zoxid Normamatovich	
FUQAROLAR MUHOJIRLARI MA'LUMOTLARI ASOSIDA HUDUDLARNING IJTIMOIIYIQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	226
Inomov Daniyar Valijonovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH: HOLAT TAHLILI VA TAVSIYALAR.....	232
Niyozov Zuhur Davronovich	
Xolmurotov Sardor	
Haydaraliyev Avaz	
YAQIN SHARQDA TURIZM EKSPORTI STRATEGIYALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI: BAA VA SAUDIYA ARABISTONI TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL	238
Tolibova Aziza To'lqin qizi	
BANKLARDA IJARA MUOMALALARINI TARTIBGA SOLUVCHI ME'YORIY - HUQUQIY ASOSLAR VA XALQARO STANDARTLAR.....	243
Sativaldiyeva Gulchexra Xudayberdiyevna	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA STRATEGIK RISK-MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	247
Masharipova Sevara	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	251
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi	
BALIQCILIK TARMOG'INI INTENSIV RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	256
Iskandar Yunusov	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: AGROEKOLOGIK VA IJTIMOIIY-IQTISODIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI	262
Mirzanov Berdak Joldasbeviç	
RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH MEKANIZMLARIGA TA'SIRI	268
A'zamxo'jayeva Nihol	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI: METODOLOGIYA VA TAKOMILLASHTIRISH	273
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich	



O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	278
Ruziyeva Nigina Baxtiyorovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDA OLIB BORILGAN ISLOHOTLAR (MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA)	284
G.A. Norbo'tayeva	
YASHIL MARKETING VA ESG INTEGRATSIYASI: STATISTIK TAHLIL VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	288
Charos G'ayratova	
РАЗВИТИЕ ЦИФРОВЫХ СИСТЕМ И ОБЗОР ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	294
Джуманов, А.А.	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH — IQTISODIY TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI.....	303
Bayitova Rohatoy Bahrom qizi	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRUVCHILARNI SUG'URTA MEKANIZMLARI ORQALI MOLIYALASH MASALALARI	307
Xakimov Zafar Ibragimovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQAROR FAOLIYAT YURITISHINI TA'MINLASH MUAMMOLARI.....	314
Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li	
FOOD PRICE VOLATILITY AND ITS EFFECTS ON LOW-INCOME HOUSEHOLDS	320
Rakhmatova Mukhlisa Dilshod qizi	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.....	327
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	
MHS VA XUSUSIY SEKTOR KREDITLARI: MAMLAKATLARARO EMPIRIK TAHLIL.....	331
Davronbek Matyakubovich Matkarimov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARINI TASHKIL ETISHNING ZARURATI.....	336
Xasanova Yulduz Kayumovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ALOQA KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	340
Saidqosimova Umida Ibragimovna	
PROSPECTS FOR DEVELOPING BROKERAGE AND UNDERWRITING ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN.....	345
Niyozov Zukhur	
Barnoyev Mirfayoz	
Yadgarov Avaz	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING	349
Begzod Nishanov	
BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	356
Raxim Matniyazov	
Umar Asrayev	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	367
Зугурова Зилола Дамировна	



FOREIGN COUNTRIES' EXPERIENCE IN ORGANIZING AND MANAGING SMALL INDUSTRIAL ZONES	371
Shodmonkulov Kamoliddin Murodillayevich	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ДЕНЕЖНЫЕ ПЕРЕВОДЫ КАК ФИНАНСОВЫЙ РЕСУРС УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ	375
Гимранова О. Б.	
О'ZBEKISTON HUDUDLARIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASI TAHLILI (2010–2025-yillar)	383
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
MINTAQADA TABIIY KAPITALNI JAMG'ARISH SAMARADORLIGINI INTEGRAL INDEKS ASOSIDA BAHOLASH VA HUDUDLARNI TABAQALASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	388
Raximov Faxriddin Shavkatovich	



UDK: 332.146.2:330.15 (575.172) MINTAQADA TABIIY KAPITALNI JAMG'ARISH SAMARADORLIGINI INTEGRAL INDEKS ASOSIDA BAHOLASH VA HUDUDLARNI TABAQALASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Raximov Faxriddin Shavkatovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0008-1234-5678

E-mail: faxriddinraximov.uz@gmail.com

Annotatsiya. Mintaqada tabiiy kapitalni jamg'arish samaradorligini integral indeks asosida baholash hamda hududlarni mazkur ko'rsatkich bo'yicha tabaqalashtirish masalalari tadqiq etilgan. Resurs, ekologik va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarining teng vazniga asoslangan tabiiy kapital integral indeksidan foydalanilib, Xorazm viloyatining 11 ta tumani misolida amaliy hisob-kitoblar amalga oshirilgan. Hisoblangan integral indeks qiymatlari asosida hududlar besh toifaga ajratilib, har bir toifa uchun tabiiy kapitalni jamg'arish salohiyatidan kelib chiqqan holda differensiallashtirilgan "yashil rivojlanish dasturlari" yo'nalishlari asoslab berilgan. Olingan natijalar hududiy resurslardan foydalanish samaradorligini xolis baholash hamda mintaqaviy iqtisodiy siyosatni hududlarning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: tabiiy kapital, integral indeks, hududlarni tabaqalashtirish, resurs indeksi, ekologik indeks, iqtisodiy samaradorlik, mintaqaviy iqtisodiyot, yashil rivojlanish dasturi, barqaror rivojlanish.

Аннотация. Исследованы вопросы оценки эффективности накопления природного капитала региона на основе интегрального индекса, а также дифференциации территорий по данному показателю. С использованием интегрального индекса природного капитала, основанного на равнозначенных ресурсных, экологических и экономических показателях эффективности, выполнены практические расчёты на примере 11 районов Хорезмской области. На основе полученных значений интегрального индекса территории распределены по пяти категориям, а для каждой категории обоснованы дифференцированные направления «зелёных программ развития» с учётом потенциала накопления природного капитала. Полученные результаты позволяют объективно оценивать эффективность использования региональных ресурсов и адаптировать региональную экономическую политику к особенностям конкретных территорий.

Ключевые слова: природный капитал, интегральный индекс, дифференциация территорий, ресурсный индекс, экологический индекс, экономическая эффективность, региональная экономика, зелёная программа развития, устойчивое развитие.

Abstract. The assessment of regional natural capital accumulation efficiency based on an integral index and the differentiation of territories according to this indicator are examined. Using an integral natural capital index based on equally weighted resource, environmental, and economic efficiency indicators, empirical calculations were carried out for 11 districts of the Khorezm region. Based on the obtained index values, the territories were classified into five categories, and differentiated directions for "green development programs" were substantiated for each category according to their natural capital accumulation potential. The findings provide an objective basis for evaluating the efficiency of regional resource use and for adapting regional economic policy to the specific characteristics of individual territories.

Keywords: natural capital, integral index, territorial differentiation, resource index, environmental index, economic efficiency, regional economy, green development program, sustainable development.



KIRISH

Mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda tabiiy kapitalni nafaqat iste'mol resursi, balki strategik iqtisodiy aktiv sifatida samarali boshqarish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon banki baholashlariga ko'ra, tabiiy kapitalning yo'qotilishi davom etsa, 2030-yilga qadar jahon yalpi ichki mahsuloti har yili o'rtacha 2,7 trillion AQSH dollarigacha kamayishi mumkin. Bu esa hududlar darajasida tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini aniq o'lchaydigan baholash vositalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida hududlarning tabiiy-resurs salohiyatini xolis baholash va shu asosda differensiallashtirilgan rivojlanish siyosatini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Biroq mavjud amaliyotda hududiy tabiiy kapital ko'pincha alohida ko'rsatkichlar orqali, ya'ni resurs, ekologik va iqtisodiy jihatlarni yaxlit hisobga olmagan holda baholanmoqda. Bu esa tabiiy resurslardan foydalanish va ularning qayta tiklanishi o'rtasidagi nomutanosibliklarni to'liq aniqlash imkonini bermaydi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolaning maqsadi resurs, ekologik va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini yaxlit hisobga oluvchi integral indeks asosida mintaqada tabiiy kapitalni jamg'arish samaradorligini baholash hamda hududlarni mazkur ko'rsatkich bo'yicha tabaqalashtirish orqali differensiallashtirilgan rivojlanish yo'nalishlarini asoslashdan iborat. Tadqiqot ob'yekti sifatida Xorazm viloyatining tumanlari tanlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tabiiy kapital nazariyasining ilmiy asoslari I.Fisher tomonidan kapital va daromad o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish doirasida shakllantirilgan bo'lib, keyinchalik R.Kostanca va H.Deyli tomonidan tabiiy kapital barqaror rivojlanishning ajralmas tarkibiy qismi sifatida asoslab berilgan. E.Ostrom va D.Nort umumiy foydalaniladigan tabiiy resurslarni institutsional boshqarish hamda institutlarning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri masalalarini ilmiy jihatdan rivojlantirgan. D.Helm esa tabiiy kapitalni iqtisodiy baholash va uni milliy hisob tizimlariga integratsiya qilish zaruriyatini ko'rsatib bergan.

Yaqin xorij olimlaridan S.N.Bobilev va boshqalar tabiiy kapitalning milliy boylik tarkibidagi o'rnini aniqlash, ekologik siyosatning iqtisodiy mexanizmlari va resurslardan samarali foydalanish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borgan. O'zbekistonda esa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik innovatsiyalarni rag'atlantirish va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etishning nazariy hamda amaliy jihatlari bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Mavjud tadqiqotlarda tabiiy kapitalni baholashning nazariy-uslubiy asoslari yetarlicha ishlab chiqilgan bo'lsa-da, hududlar darajasida resurs, ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxlit hisobga oluvchi integral baholash hamda shu asosda hududlarni tabaqalashtirish masalalari to'liq yoritilmagan. Mazkur maqola ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda statistik guruhlashtirish, qiyosiy tahlil, normallashtirish va integral baholash usullaridan foydalanildi. Tabiiy kapitalni jamg'arish samaradorligini kompleks baholash uchun uchta tarkibiy ko'rsatkich – resurs indeksi (R), ekologik indeks (E) va iqtisodiy samaradorlik indeksi (S) asos qilib olindi.

Resurs indeksi (R) hududning resurs salohiyati va yer sifatini ifodalaydi hamda sug'oriladigan yerlarning sho'rlanmagan va kuchsiz sho'rlangan (unumdor) qismi ulushi asosida aniqlandi.

Ekologik indeks (E) tabiiy resurslarning qayta tiklanishi va degradatsiya o'rtasidagi muvozanatni aks ettiradi hamda kuchli va juda kuchli sho'rlangan yerlar ulushiga teskari proporsional ravishda ($E = 1 - \text{kuchli sho'rlangan yerlar ulushi}$) hisoblandi.

Iqtisodiy samaradorlik indeksi (S) tabiiy resurslardan foydalanish natijasida olinayotgan iqtisodiy foydani ifodalaydi hamda 1 gektar yerdan olinadigan mahsulot qiymati asosida aniqlandi.

Ko'rsatkichlarni o'zaro qiyoslash imkonini ta'minlash maqsadida har bir ko'rsatkich min-maks usuli yordamida [0; 1] oralig'iga normallashtirildi (1-formula):

$$x_{\text{norm}} = (x_i - x_{\text{min}}) / (x_{\text{max}} - x_{\text{min}}) \quad (1)$$

Bunda x_i – i-hududning ko'rsatkich qiymati; x_{min} va x_{max} – mos ravishda hududlar bo'yicha eng kichik va eng katta qiymatlar.

Normallashtirilgan ko'rsatkichlar asosida tabiiy kapitalning integral indeksi (I) barcha indikatorlarning teng vazniga asoslangan holda hisoblanadi (2-formula):

$$I = (R + E + S) / 3 \quad (2)$$



Integral indeks qiymati 0 dan 1 gacha o'zgaradi: u qancha yuqori bo'lsa, hududda tabiiy kapitaldan foydalanish shuncha samarali va barqaror hisoblanadi. Hisoblangan qiymatlar asosida hududlar besh toifaga ajratildi: 1-toifa (juda yuqori, $I \geq 0,80$); 2-toifa (yuqori, $0,65 \leq I < 0,80$); 3-toifa (o'rta, $0,50 \leq I < 0,65$); 4-toifa (past, $0,35 \leq I < 0,50$); 5-toifa (juda past, $I < 0,35$). Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Xorazm viloyati statistika boshqarmasining 2025-yilgi rasmiy ma'lumotlari tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Xorazm viloyati iqtisodiyoti asosan sug'orma dehqonchilikka ixtisoslashgan bo'lib, yer va suv resurslari tabiiy kapitalning asosiy qismini tashkil etadi. Viloyatning umumiy 608,2 ming gektar yer fondining qariyb 55 foizi qishloq xo'jaligi yerlariga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, sug'oriladigan yerlarning 73,6 foizi turli darajada sho'rlangan bo'lib, bu hududlar bo'yicha tabiiy kapital holatining sezilarli darajada tabaqalashganini ko'rsatadi. Mazkur metodika asosida viloyatning 11 ta tumani bo'yicha hisoblangan resurs, ekologik va iqtisodiy samaradorlik indekslari hamda integral indeks qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Xorazm viloyati tumanlarida tabiiy kapitalning integral indeksi (2025 yil)¹

Hudud (tuman)	Resurs indeksi (R)	Ekologik indeks (E)	Iqtisodiy indeks (S)	Integral indeks (I)	Reyting	Toifa
Xiva	0,959	0,959	1,000	0,973	1	1
Yangiariq	0,998	0,977	0,849	0,941	2	1
Xazorasp	0,996	0,881	0,713	0,863	3	1
Gurlan	1,000	1,000	0,332	0,777	4	2
Shovot	0,905	0,890	0,489	0,761	5	2
Bog'ot	0,671	0,717	0,862	0,750	6	2
Urganch	0,843	0,749	0,645	0,746	7	2
Xonqa	0,194	0,813	0,602	0,536	8	3
Tuproqqal'a	0,802	0,708	0,000	0,503	9	3
Qo'shko'pir	0,473	0,374	0,412	0,420	10	4
Yangibozor	0,000	0,000	0,540	0,180	11	5

Hisob-kitob natijalari shuni ko'rsatdiki, integral indeksning eng yuqori qiymati Xiva (0,973), Yangiariq (0,941) va Xazorasp (0,863) tumanlariga to'g'ri keladi. Bu hududlarda yer sifati nisbatan yaxshi saqlangan, kuchli sho'rlangan yerlar ulushi past hamda 1 gektar yerdan olinadigan mahsulot qiymati yuqori bo'lganligi tabiiy kapitaldan samarali foydalanilayotganini bildiradi. Eng past integral indeks esa Yangibozor (0,180) va Qo'shko'pir (0,420) tumanlarida qayd etildi, bu mazkur hududlarda sho'rlanish va yer degradatsiyasi jarayonlari kuchli ekanligi hamda resurs bazasining kapitallashuv darajasi pastligi bilan izohlanadi. Hududlar bo'yicha integral indeks qiymatlarining taqsimlanishi 1-rasmda aks ettirilgan.



1-rasm. Xorazm viloyati tumanlarida tabiiy kapitalning integral indeksi va toifalari²

1 Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

2 Manba: muallif ishlanmasi



Tarkibiy ko'rsatkichlar tahlili tabiiy kapital holatining hududlararo nomutanosibligini yanada oydinlashtiradi. Masalan, Gurlan tumanida resurs va ekologik indekslar eng yuqori (1,000) bo'lsa-da, iqtisodiy samaradorlik indeksi nisbatan past (0,332) bo'lib, bu mavjud sifatli resurs bazasidan iqtisodiy qiymat yaratishda salohiyat to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi. Aksincha, Bog'ot tumanida iqtisodiy samaradorlik yuqori (0,862) bo'lsa-da, resurs indeksi nisbatan past (0,671) bo'lib, intensiv foydalanish resurs bazasiga bosim o'tkazayotganidan dalolat beradi. Bu esa har bir hududda tabiiy kapitalni boshqarishning o'ziga xos ustuvor yo'nalishlarini belgilashni taqozo etadi.

Integral indeks qiymatlari asosida amalga oshirilgan tabaqalashtirish natijasida viloyat hududlari besh toifaga ajratildi. 1-toifaga uchta tuman (Xiva, Yangiariq, Xazorasp), 2-toifaga to'rtta tuman (Gurlan, Shovot, Bog'ot, Urganch), 3-toifaga ikkita tuman (Xonqa, Tuproqqal'a), 4-toifaga Qo'shko'pir va 5-toifaga Yangibozor tumani kiritildi. Ushbu toifalashtirish har bir hudud uchun tabiiy kapitalni jamg'arish salohiyatiga mos differensiallashtirilgan rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish uchun asos bo'ladi (2-jadval).

2-jadval

Hududlarni tabaqalashtirish va differensiallashtirilgan "yashil rivojlanish dasturlari" yo'nalishlari³

Toifa	Hududlar	Tavsiya etilayotgan ustuvor yo'nalishlar
1-toifa	Xiva, Yangiariq, Xazorasp	Yuqori qo'shimcha qiymatli yashil mahsulotlar (organik dehqonchilik) ishlab chiqarish, innovatsion va qayta ishlash infratuzilmasini joylashtirish, intensiv bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish, agroturizm hamda eksportbop tarmoqlarni kengaytirish.
2-toifa	Gurlan, Shovot, Bog'ot, Urganch	Mavjud sifatli resurs bazasidan iqtisodiy qaytimni oshirish, qayta ishlash zanjirlarini kuchaytirish, resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish, mahsulot qiymatini oshiruvchi klasterlarni shakllantirish.
3-toifa	Xonqa, Tuproqqal'a	Drenaj tizimlarini modernizatsiya qilish va suv boshqaruvini takomillashtirish orqali ekologik holatni barqarorlashtirish, yer unumdorligini tiklash, raqamli agromonitoringni joriy etish.
4-toifa	Qo'shko'pir	Suv tejamkor agrotexnologiyalar (tomchilatib sug'orish, lazerli tekislash), yerlarni rekultivatsiya qilish va sho'rini yuvish, kichik qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish.
5-toifa	Yangibozor	Sho'rlangan va degradatsiyaga uchragan yerlarni kompleks tiklash, melioratsiya va drenaj tizimlarini tubdan yangilash, sho'rga chidamli ekinlarni joriy etish, ekologik reabilitatsiya loyihalarini amalga oshirish.

Taklif etilayotgan yondashuvning amaliy ahamiyati shundaki, u tabiiy kapitalni jamg'arish samaradorligini yaxlit, ya'ni resurs, ekologik va iqtisodiy jihatlarni bir vaqtda hisobga olgan holda baholash imkonini beradi. Bu esa hududiy boshqaruvda investitsiyalar va iqtisodiy resurslarni har bir hududning tabiiy-resurs xususiyatiga mos ravishda maqsadli yo'naltirish, ya'ni yuqori salohiyatli hududlarda yashil iqtisodiyot tarmoqlarini, salohiyati past hududlarda esa resurslarni tiklash va muhofaza qilish tadbirlarini ustuvor ko'rish imkonini yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

Birinchiidan, resurs, ekologik va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarining teng vazniga asoslangan integral indeks mintaqada tabiiy kapitalni jamg'arish samaradorligini kompleks va xolis baholashning samarali vositasi sifatida e'tirof etildi. Mazkur indeks alohida ko'rsatkichlar bera olmaydigan yaxlit manzarani ta'minlaydi.

Ikkinchiidan, Xorazm viloyatining 11 ta tumani misolida o'tkazilgan hisob-kitoblar tabiiy kapital holatining sezilarli hududlararo tabaqalanishini ko'rsatdi: integral indeks 0,180 dan (Yangibozor) 0,973 gacha (Xiva) o'zgardi. Bu hududiy iqtisodiy siyosatni yagona shablon asosida emas, balki differensiallashtirilgan yondashuv asosida olib borish zarurligini tasdiqlaydi.

Uchinchiidan, hududlarni besh toifaga ajratish asosida differensiallashtirilgan "yashil rivojlanish dasturlari" taklif etildi: 1–2-toifa hududlarda yuqori qo'shimcha qiymatli yashil mahsulotlar ishlab chiqarish va innovatsion infratuzilmani joylashtirish, 4–5-toifa hududlarda esa suv tejamkor agrotexnologiyalarni joriy etish, yerlarni rekultivatsiya qilish va kichik qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqligi asoslandi.

3 Manba: muallif ishlanmasi.



To'rtinchidan, mazkur uslubiyotni hududiy boshqaruv amaliyotiga joriy etish tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini muntazam monitoring qilish, ekologik-iqtisodiy nomutanosibliklarni o'z vaqtida aniqlash va resurslarni hududlar salohiyatiga mos ravishda maqsadli taqsimlash imkonini beradi. Kelgusi tadqiqotlarda integral indeksni raqamli monitoring tizimlari va ekonometrik prognoz modellari bilan integratsiya qilish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fisher I. The Nature of Capital and Income. — London: Macmillan & Co, 1991. — pp. 55–56.
2. Costanza R., Daly H. Natural Capital and Sustainable Development // Conservation Biology. — 1992. — Vol. 6, No. 1. — pp. 37–46.
3. Ostrom E. Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action. — Cambridge: Cambridge University Press, 1990. — pp. 124–127.
4. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. — Cambridge: Cambridge University Press, 1990. — pp. 56–61.
5. Helm D. Natural Capital: Valuing the Planet. — New Haven: Yale University Press, 2015. — 312 p.
6. World Bank. The Changing Wealth of Nations 2021: Managing Assets for the Future. — Washington, DC: World Bank, 2021. — 462 p.
7. Бобылев С.Н. Экономика устойчивого развития. — М.: КНОРУС, 2021. — С. 142–150.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4539502>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4574008>
10. Raximov F.Sh. Tabiiy kapitalni jamg'arish samaradorligini baholash uslubiyoti // Marketing jurnali. — 2026. — №4. — B. 151–163.
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari. — www.stat.uz (murojaat sanasi: 2026-yil).
12. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. — Urganch, 2025.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>